ERTA NIKOHNING QIZLAR HAYOTIGA SALBIY TA'SIRI.

Raximova Ziyoda Ibroximjonovna
Qo'rg'ontepa tuman 2 - son texnikumi xotin-qizlar ishlari bo'yicha direktor maslahatchisi.
E-mail.rahimovaziyoda62@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23228509

Annotatsiya: maqolada erta turmushning oldini olish masalasi muhim ijtimoiy muammo sifatida yoritilgan bo'lib, unda qizlarni erta yoshda turmushga chiqishining salbiy oqibatlari batafsil tahlil qilingan. Erta turmush qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini cheklashi, ularning shaxs sifatida to'liq shakllanishiga to'sqinlik qilishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: erta turmushni oldini olish, erta turmushning salbiy tomonlari, kamqonlik, jamiyatdagi o'rni, kamquvvatlik.

THE NEGATIVE IMPACT OF EARLY MARRIAGE ON GIRLS' LIVES.

Abstract: This article addresses the prevention of early marriages as an important social issue. It provides a detailed analysis of the negative consequences of early marriage for girls. It emphasizes that early marriage limits girls' opportunities to receive an education and hinders their full development as individuals.

Keywords:prevention of early marriage, negative aspects of early marriage, importance of medical examination, anemia, physical weakness.

НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ РАННЕГО БРАКА НА ЖИЗНЬ ДЕВУШЕК.

Аннотация: В статье проблема предотвращения ранних браков рассматривается как важная социальная проблема. В ней подробно анализируются негативные последствия раннего замужества девушек. Подчёркивается, что ранний брак ограничивает возможности девушек в получении образования и препятствует их полноценному становлению как личности.

Ключевые слова: Предотвращение раннего брака, негативные стороны раннего брака, значение медицинского осмотра, анемия, физическая слабость.

Erta nikoh — bu qiz yoki yigitning voyaga yetmasdan, odatda 18 yoshga to'lmasdan turib turmush qurishidir. Ko'plab davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham nikoh yoshi qonun bilan belgilangan. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, nikoh yoshi odatda 18 yosh deb belgilangan. Voyaga yetmaganlar bilan nikoh tuzish qonunga xilof hisoblanadi (istisno holatlar sud qarori bilan ko'rib chiqilishi mumkin).

Yosh qizlarning ham erta turmushga chiqishi ularning oilaviy hayotga tayyor emasligi turli salbiy holatlarga olib kelmoqda. Respublikamizda qizlarning erta turmushga chiqishi aholining tez o'sishiga ta'sir qilmoqda. 16–17 yoshli qizning jismi hali bunday og'ir ishlarni bajarishga tayyor bo'lmaydi. Qizlar bu yoshda ma'naviy jihatdan ham oila munosabatlariga tayyor bo'lmaydi, zaruriy ko'nikmalarni

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

egallamay, bilim olmay turib turmushga chiqqan qiz, ayol, jamiyat a'zosi sifatidagi vazifalarini to‘kis ado etishga qiynaladi.

Yosh qizlar o‘rta umumta'lim maktablari undan keyin kollej va litseylarda ta'lim olishlari shart. Erta oila qurgan qizlarda kamqonlik, kamquvvatlik ko‘p kuzatiladi. Bu hol kelinlarning uzoq vaqt bo‘yida bo‘lmasligi, homiladorlik og‘ir kechishga go‘daklar nobud bo‘lishi yoki nogiron farzand tug‘ilishi, tug'ruqdan keyingi turli asoratlarga olib kelishi mumkinligini shifokorlar ta'kidlaydi. Erta nikoh — bu qizlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan yetuklikka erishmasdan turmush qurishidir. Bu holat nafaqat bir oila, balki butun jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Organizmning yetilmaganligi – o'smir yoshdagi qizlarning tanasi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Homiladorlik va tug‘ruq og‘ir kechishi, kamqonlik (anemiya),qon bosimining buzilishi, vitamin yetishmovchiligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Onalik xavfi Erta yoshdagi homiladorlik: muddatidan oldin tug‘ish, kam vaznli chaqaloq tug‘ilishi, tug‘ruqdagi asoratlar xavfini oshiradi. Ba'zi hollarda ona salomatligi jiddiy zarar ko‘rishi mumkin. Qizlarning baxtli va muvaffaqiyatli hayoti uchun ularning ta'limi, sog‘ligi va erkin tanlov huquqi ustuvor bo‘lishi kerak.

Erta turmush qurgan qizlar ko‘pincha ruhiy bosim va psixologik muammolarga duch keladi. Yosh qizlar oilaviy munosabatlar, kelinlik majburiyatlari, farzand tarbiyasi kabi mas'uliyatlarga tayyor bo‘lmaydi. Bu esa qo‘rquv, tushkunlik, stress va o‘ziga ishonchsizlik holatlariga olib keladi. Ba'zi hollarda oilaviy zo‘ravonlikka chidashga majbur bo‘lish, ajrimlar sonining ortishi ham erta nikoh bilan bevosita bog‘liq. AD расмини ташланглар

Erta nikoh jamiyat rivojiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ta'lim olmagan, kasb-hunarsiz qolgan ayollar jamiyatda faol ishtirok eta olmaydi. Bu esa ijtimoiy tengsizlikning kuchayishiga va aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. rta nikoh – bu hali orzulari qanot yozishga ulgurmagan qizlarning kelajagini cheklash demakdir. Har bir qiz ta'lim olish, o‘z iqtidorini namoyon etish va mustaqil hayot qurish huquqiga ega.

Ularning bolaligi shoshilinch qarorlar qurboni bo‘lmasligi kerak. Kelajakni o‘zgartirish bugungi ongli tanlovlardan boshlanadi. Erta nikohning oldini olish — faqat bir oilaning emas, balki butun jamiyatning vazifasidir. Qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning ta'lim va rivojlanishiga sharoit yaratish orqali biz yorqin kelajak sari dadil qadam tashlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.
3. Website Universitas Sumatera Utara.
4. https://www naqshband uz.
5. https://arxiv. uz

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.